**Hujjat 09.11.2021 sanasi holatiga**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

# TOSHKENT SHAHRIDA SINGAPUR MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH TO‘G‘RISIDA

Ilg‘or xalqaro ta’lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlar, ayniqsa mamlakat mintaqalaridan bo‘lgan yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va undan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida:

1. Toshkent shahrida Singapur menejmentni rivojlantirish institutini (bundan buyon matnda — Institut deb yuritiladi) tashkil etish to‘g‘risida Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) hamda O‘zbekiston Banklar uyushmasining taklifi qabul qilinsin.

Belgilansinki, mazkur Institut Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) va O‘zbekiston Banklar uyushmasi tomonidan ta’sis etiladigan oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi.

Institutni tashkil etish bo‘yicha tashkiliy komissiyaning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Oliy ta’lim sifatiga nisbatan qo‘yiladigan umume’tirof etgan xalqaro talablarga, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining maqsad va vazifalariga muvofiq, “Bank ishi”, “Biznesni boshqarish”, “Turizm” va “Biznesda zamonaviy axborot texnologiyalari” yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriat (keyinchalik magistratura) tizimi asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutining asosiy vazifasi deb hisoblansin.

3. Quyidagilar belgilansin:

mazkur Institutning faoliyatiga o‘quv-uslubiy rahbarlikni Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) bakalavriat va magistratura tizimi bo‘yicha kadrlar tayyorlashning umume’tirof etgan xalqaro standartlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiradi;

**Joriy versiya**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

TOSHKENT SHAHRIDA SINGAPUR MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH TO‘G‘RISIDA

Ilg‘or xalqaro ta’lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlar, ayniqsa mamlakat mintaqalaridan bo‘lgan yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va undan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida:

1. Toshkent shahrida Singapur menejmentni rivojlantirish institutini (bundan buyon matnda — Institut deb yuritiladi) tashkil etish to‘g‘risida Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) hamda O‘zbekiston Banklar uyushmasining taklifi qabul qilinsin.

Belgilansinki, mazkur Institut Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) va O‘zbekiston Banklar uyushmasi tomonidan ta’sis etiladigan oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi.

Institutni tashkil etish bo‘yicha tashkiliy komissiyaning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Oliy ta’lim sifatiga nisbatan qo‘yiladigan umume’tirof etgan xalqaro talablarga, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining maqsad va vazifalariga muvofiq, “Bank ishi”, “Biznesni boshqarish”, “Turizm” va “Biznesda zamonaviy axborot texnologiyalari” yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriat (keyinchalik magistratura) tizimi asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutining asosiy vazifasi deb hisoblansin.

3. Quyidagilar belgilansin:

mazkur Institutning faoliyatiga o‘quv-uslubiy rahbarlikni Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) bakalavriat va magistratura tizimi bo‘yicha kadrlar tayyorlashning umume’tirof etgan xalqaro standartlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiradi;

abituriyentlarni qabul qilish hamda bitiruvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) tomonidan o‘rnatiladigan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi;

Institutda o‘qish Singapur menejmentni rivojlantirish institutida (Singapur Respublikasi) qabul qilingan normalar, ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlariga muvofiq kunduzgi ta’lim shaklida olib boriladi.

4. Belgilansinki:

Institutda o‘qish to‘lov-kontrakt asosida, shu jumladan, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi), O‘zbekiston Banklar uyushmasi, tijorat banklari ta’sis etadigan maxsus ta’lim grantlari bo‘yicha, shuningdek homiylarning yoshlarni, asosan mamlakat mintaqalaridan bo‘lgan yoshlarni o‘qitishga ajratiladigan mablag‘lari hisobidan olib boriladi;

Institutning joriy faoliyatini moliyalashtirish Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) mablag‘lari, shuningdek talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun tushadigan mablag‘lar, xorijiy va milliy homiylarning, O‘zbekiston Banklar uyushmasi va tijorat banklarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. Institut bitiruvchilariga, 2-ilovaga muvofiq, tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) ning sheriklaridan bo‘lgan yetakchi xalqaro oliy ta’lim muassasalaridan birining diplomi berilishi, bu diplom O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat sifatida e’tirof etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. O‘zbekiston Banklar uyushmasi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi), O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda Institutni tashkil etish bo‘yicha ta’sis hujjatlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

belgilangan tartibda Institutning davlat ro‘yxatiga olinishini ta’minlasin;

2008-yilning 1-yanvarigacha Institutning tashkiliy tuzilmasi hamda shtat jadvalini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

abituriyentlarni qabul qilish hamda bitiruvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) tomonidan o‘rnatiladigan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi;

Institutda o‘qish Singapur menejmentni rivojlantirish institutida (Singapur Respublikasi) qabul qilingan normalar, ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlariga muvofiq kunduzgi ta’lim shaklida olib boriladi.

4. Belgilansinki:

Institutda o‘qish to‘lov-kontrakt asosida, shu jumladan, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi), O‘zbekiston Banklar uyushmasi, tijorat banklari ta’sis etadigan maxsus ta’lim grantlari bo‘yicha, shuningdek homiylarning yoshlarni, asosan mamlakat mintaqalaridan bo‘lgan yoshlarni o‘qitishga ajratiladigan mablag‘lari hisobidan olib boriladi;

Institutning joriy faoliyatini moliyalashtirish Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) mablag‘lari, shuningdek talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun tushadigan mablag‘lar, xorijiy va milliy homiylarning, O‘zbekiston Banklar uyushmasi va tijorat banklarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. Institut bitiruvchilariga, 2-ilovaga muvofiq, tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) ning sheriklaridan bo‘lgan yetakchi xalqaro oliy ta’lim muassasalaridan birining diplomi berilishi, bu diplom O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat sifatida e’tirof etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. O‘zbekiston Banklar uyushmasi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi), O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda Institutni tashkil etish bo‘yicha ta’sis hujjatlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

belgilangan tartibda Institutning davlat ro‘yxatiga olinishini ta’minlasin;

2008-yilning 1-yanvarigacha Institutning tashkiliy tuzilmasi hamda shtat jadvalini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2008/2009 o‘quv yili boshlangunga qadar Institutni O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun majburiy bo‘lgan zarur o‘quv-uslubiy hujjatlar bilan ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Banklar uyushmasi Institut hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagoglar va ilmiy kadrlar malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasi bilan birgalikda yuqori malakali va iste’dodli yosh olimlar, mutaxassislar hamda pedagoglarni keyinchalik Institutga ishlashga jalb etish uchun ularning tanlovini o‘tkazsin hamda malaka oshirishlarini tashkil qilsin.

9. Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga:

o‘qituvchilik va ilmiy ishlar uchun Institutga taklif qilingan xorijiy professorlar hamda o‘qituvchilarning yashashi va transport xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun o‘rnatilgan tariflar bo‘yicha milliy valyutada haq to‘lashga;

Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda kadrlarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarni hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollarini hisobga olib, ta’limning yangi istiqbolli yo‘nalishlari va ixtisosliklarini ochishga ruxsat berilsin.

10. Institut, jumladan, Institutni jihozlash va uning faoliyat yuritishi uchun respublikaga olib kelinadigan uskunalar, multimedia mahsulotlari, adabiyotlar, anjomlar va moddiy-texnika resurslarini olib kirishda 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari) to‘lashdan ozod qilinsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Banklar uyushmasi va Institutning qo‘shma buyurtmanomalari bo‘yicha ta’lim jarayonida qatnashuvchi chet el o‘qituvchilari va ekspertlarga, shuningdek Institutning xorijiy abituriyentlari va talabalariga konsullik yig‘imlari undirilmasdan kirish vizalari berilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2008/2009 o‘quv yili boshlangunga qadar Institutni O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun majburiy bo‘lgan zarur o‘quv-uslubiy hujjatlar bilan ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Banklar uyushmasi Institut hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagoglar va ilmiy kadrlar malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasi bilan birgalikda yuqori malakali va iste’dodli yosh olimlar, mutaxassislar hamda pedagoglarni keyinchalik Institutga ishlashga jalb etish uchun ularning tanlovini o‘tkazsin hamda malaka oshirishlarini tashkil qilsin.

9. Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga:

o‘qituvchilik va ilmiy ishlar uchun Institutga taklif qilingan xorijiy professorlar hamda o‘qituvchilarning yashashi va transport xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun o‘rnatilgan tariflar bo‘yicha milliy valyutada haq to‘lashga;

Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi) hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda kadrlarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarni hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollarini hisobga olib, ta’limning yangi istiqbolli yo‘nalishlari va ixtisosliklarini ochishga ruxsat berilsin.

10. Institut, jumladan, Institutni jihozlash va uning faoliyat yuritishi uchun respublikaga olib kelinadigan uskunalar, multimedia mahsulotlari, adabiyotlar, anjomlar va moddiy-texnika resurslarini olib kirishda 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari) to‘lashdan ozod qilinsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Banklar uyushmasi va Institutning qo‘shma buyurtmanomalari bo‘yicha ta’lim jarayonida qatnashuvchi chet el o‘qituvchilari va ekspertlarga, shuningdek Institutning xorijiy abituriyentlari va talabalariga konsullik yig‘imlari undirilmasdan kirish vizalari berilishini ta’minlasin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oʻzbekiston Banklar uyushmasi va Institutning qoʻshma buyurtmanomalari boʻyicha taʼlim jarayonida qatnashuvchi chet el oʻqituvchilari va ekspertlari uchun, shuningdek Institutning xorijiy abituriyentlari va talabalari uchun davlat boji toʻlanmasdan koʻp martalik vizalar uzaytirilishi va berilishini, vaqtincha turgan joyi boʻyicha roʻyxatga olinishi va uning muddati uzaytirilishini taʼminlasin.

13. Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti quyidagi manzilda joylashtirilsin: Toshkent shahri, Xalqlar doʻstligi prospekti, 28-uy.

Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Toshkent shahar, Xalqlar doʻstligi prospekti, 28-uy manzilida joylashgan Fuqarolik himoyasi institutining bino va inshootlarini balans qiymati boʻyicha Oʻzbekiston Banklar uyushmasiga keyinchalik ularni belgilangan tartibda Institut balansiga oʻtkazish sharti bilan sotsin.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mulki qoʻmitasi va Toshkent shahar hokimligi mazkur bandda koʻrsatilgan binolar va inshootlarga nisbatan mulkiy huquqlarini rasmiylashtirishda Institutga yordam bersin.

14. Maʼlumot uchun qabul qilinsinki, Institut balansiga topshiriladigan binolar hamda inshootlarni rekonstruksiya qilish va mukammal taʼmirlash, uning moddiy-texnika va oʻquv-uslubiy bazasini jihozlash Oʻzbekiston Banklar uyushmasining ulush bilan ishtirokida Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi)ning mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Banklar uyushmasi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi), Oʻzbekiston Respublikasi “Davarxitektqurilish” qoʻmitasi, Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda zarur loyiha-smeta hujjatlari oʻz vaqtida tayyorlanishini, Institutni joylashtirish uchun berilayotgan bino va inshootlar rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal taʼmirlanishini, shuningdek oʻqituvchilar va talabalar yashashi uchun yotoqxona tayyorlanishini, ularning zarur oʻquv uskunalari, kompyuter texnikasi va kutubxona fondi bilan jihozlanishini, Institutning butun kompleksi 2008/2009 oʻquv yili boshlangungacha ishga tushirilishini taʼminlasin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oʻzbekiston Banklar uyushmasi va Institutning qoʻshma buyurtmanomalari boʻyicha taʼlim jarayonida qatnashuvchi chet el oʻqituvchilari va ekspertlari uchun, shuningdek Institutning xorijiy abituriyentlari va talabalari uchun davlat boji toʻlanmasdan koʻp martalik vizalar uzaytirilishi va berilishini, vaqtincha turgan joyi boʻyicha roʻyxatga olinishi va uning muddati uzaytirilishini taʼminlasin.

13. Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti quyidagi manzilda joylashtirilsin: Toshkent shahri, Xalqlar doʻstligi prospekti, 28-uy.

Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Toshkent shahar, Xalqlar doʻstligi prospekti, 28-uy manzilida joylashgan Fuqarolik himoyasi institutining bino va inshootlarini balans qiymati boʻyicha Oʻzbekiston Banklar uyushmasiga keyinchalik ularni belgilangan tartibda Institut balansiga oʻtkazish sharti bilan sotsin.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mulki qoʻmitasi va Toshkent shahar hokimligi mazkur bandda koʻrsatilgan binolar va inshootlarga nisbatan mulkiy huquqlarini rasmiylashtirishda Institutga yordam bersin.

14. Maʼlumot uchun qabul qilinsinki, Institut balansiga topshiriladigan binolar hamda inshootlarni rekonstruksiya qilish va mukammal taʼmirlash, uning moddiy-texnika va oʻquv-uslubiy bazasini jihozlash Oʻzbekiston Banklar uyushmasining ulush bilan ishtirokida Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi)ning mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Banklar uyushmasi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi), Oʻzbekiston Respublikasi “Davarxitektqurilish” qoʻmitasi, Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda zarur loyiha-smeta hujjatlari oʻz vaqtida tayyorlanishini, Institutni joylashtirish uchun berilayotgan bino va inshootlar rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal taʼmirlanishini, shuningdek oʻqituvchilar va talabalar yashashi uchun yotoqxona tayyorlanishini, ularning zarur oʻquv uskunalari, kompyuter texnikasi va kutubxona fondi bilan jihozlanishini, Institutning butun kompleksi 2008/2009 oʻquv yili boshlangungacha ishga tushirilishini taʼminlasin.

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Institutni belgilangan tartibda zarur turdagi telefon va telekommunikatsiya aloqalari, shu jumladan hukumat telefon aloqasi bilan ta'minlasin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari R.S. Azimov va R.S. Qosimov zimmalariga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

2007-yil 5-sentabr,

PQ-691-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-sentabrdagi PQ-691-son qaroriga
1-ILOVA

**Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutini tashkil etish bo'yicha tashkiliy komissiyaning**

TARKIBI

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Institutni belgilangan tartibda zarur turdagi telefon va telekommunikatsiya aloqalari, shu jumladan hukumat telefon aloqasi bilan ta'minlasin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari R.S. Azimov va R.S. Qosimov zimmalariga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

2007-yil 5-sentabr,

PQ-691-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-sentabrdagi PQ-691-son qaroriga
1-ILOVA

**Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutini tashkil etish bo'yicha tashkiliy komissiyaning**

TARKIBI

| | | |
|---|---|---|
| R.S. Azimov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, moliya vaziri, komissiya raisi |
| R.S. Qosimov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, komissiya raisi o'rinbosari |
| I.T. Ne'matov | — | O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari |
| E.M. G'aniyev | — | O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri |
| K.R. Berdiyev | — | O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri |
| S.X. Nosirov | — | O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi |
| A.R. Toxtayev | — | O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi |
| A.X. To'xtayev | — | Toshkent shahar hokimi |
| X.S. Mahkamov | — | Toshkent shahar Chilonzor tumani hokimi |
| R. Deyvendran | — | Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bosh kotibi (Singapur Respublikasi) |
| S.P. Abdullayev | — | O'zbekiston Banklar uyushmasi bosh direktori, komissiya kotibi |

* Izoh. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ularning lavozimiga qaytadan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-sentabrdagi PQ-691-son qaroriga
2-ILOVA

**Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bitiruvchilariga diplomlari beriladigan, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi)ning sheriklari bo'lgan**

OLIY TA'LIM MUASSASALARI


| | | |
|---|---|---|
| R.S. Azimov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, moliya vaziri, komissiya raisi |
| R.S. Qosimov | — | O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, komissiya raisi o'rinbosari |
| I.T. Ne'matov | — | O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari |
| E.M. G'aniyev | — | O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri |
| K.R. Berdiyev | — | O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri |
| S.X. Nosirov | — | O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi |
| A.R. Toxtayev | — | O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi |
| A.X. To'xtayev | — | Toshkent shahar hokimi |
| X.S. Mahkamov | — | Toshkent shahar Chilonzor tumani hokimi |
| R. Deyvendran | — | Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bosh kotibi (Singapur Respublikasi) |
| S.P. Abdullayev | — | O'zbekiston Banklar uyushmasi bosh direktori, komissiya kotibi |

* Izoh. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ularning lavozimiga qaytadan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-sentabrdagi PQ-691-son qaroriga
2-ILOVA

**Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti bitiruvchilariga diplomlari beriladigan, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur Respublikasi)ning sheriklari bo'lgan**

OLIY TA'LIM MUASSASALARI

| Nomi | Ta’lim yo‘nalishlari |
|---|---|
| Singapur Milliy universiteti<br>(Singapur Respublikasi) | Biznesni boshqarish |
| Edit Kovan universiteti<br>(Avstraliya) | Biznesni boshqarish |
| | Biznesda zamonaviy axborot texnologiyalari |
| Grenobl Oliy biznes maktabi<br>(Fransiya) | Biznesni boshqarish |
| Bredford universiteti<br>(Buyuk Britaniya) | Bank ishi |
| | Biznesni boshqarish |
| | Turizm |
| | Biznesda zamonaviy axborot texnologiyalari |
| Uels universiteti<br>(Buyuk Britaniya) | Bank ishi |
| | Biznesni boshqarish |
| Sanderlend universiteti<br>(Buyuk Britaniya) | Turizm |

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 35-36-son, 354-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)*


| Nomi | Ta’lim yo‘nalishlari |
|---|---|
| Singapur Milliy universiteti<br>(Singapur Respublikasi) | Biznesni boshqarish |
| Edit Kovan universiteti<br>(Avstraliya) | Biznesni boshqarish |
| | Biznesda zamonaviy axborot texnologiyalari |
| Grenobl Oliy biznes maktabi<br>(Fransiya) | Biznesni boshqarish |
| Bredford universiteti<br>(Buyuk Britaniya) | Bank ishi |
| | Biznesni boshqarish |
| | Turizm |
| | Biznesda zamonaviy axborot texnologiyalari |
| Uels universiteti<br>(Buyuk Britaniya) | Bank ishi |
| | Biznesni boshqarish |
| Sanderlend universiteti<br>(Buyuk Britaniya) | Turizm |

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 35-36-son, 354-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)*